



Опубликован 2021-05-19

# O'QUVCHI – YOSHLARDA XALQ MUSIQA MEROSIGA BARQAROR QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH.

## Аннотация

Yuksak badiiy ijod namunasi bo'lgan mumtoz va maqom qo'shiqlari, ashulalari matniga mos musiqiy ohanglar uyg'unligi inson hissiyotiga kuchli, betakror va o'zgaruvchan jozibador ta'sir etishi bilan badiiy – estetik

## Авторы

*Elnoz Abdulkarimova*  
Jizzax Davlat pedagogika  
instituti

Отправить материал

## Информация

Для цитирования  
Для авторов

<https://art.jspi.uz/index.php/art/submission/wizard>

## O'QUVCHI – YOSHLARDA XALQ MUSIQA MEROSIGA BARQAROR QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH.

Abdukarimova Elnoz Ismatillayevna,  
JDPI Musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Yuksak badiiy ijod namunasi bo'lgan mumtoz va maqom qo'shiqlari, ashulalari matniga mos musiqiy ohanglar uyg'unligi inson hissiyotiga kuchli, betakror va g'oyat jozibador ta'sir etishi bilan badiiy – estetik tarbiyani qudratli vositasiga ekanligi, Mumtoz adabiyotdagi she'riy misralar, sehrli ohang bilan yo'g'rilgan qo'shiqlar yosh avlod tarbiyasida, oliyanob hissiyotlar uyg'otishi va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

**Аннотация:** Классические и макомные песни, являющиеся образцом высокого художественного творчества, являются мощным средством художественного и эстетического воспитания с сильным, уникальным и очень привлекательным воздействием на человеческие чувства. Стихи, песни, исполняемые с волшебной мелодией, подчеркивают возможности использования их в воспитании подрастающего поколения, пробуждении благородных чувств и воспитательных целей.

**Annotation:** Classic and makom songs, exemplary of high artistic creativity, are a powerful means of artistic and aesthetic education with a strong, unique and very attractive effect on human feelings. Poems and songs performed with a magical melody emphasize the possibilities of using them in educating the younger generation, awakening noble feelings and educational goals.

**Kalit so'zlar:** xalq musiqi merosi, milliy g'oya, mafkura, ta'lim, tarbiya, shaxs ma'naviy kamolot, umumta'lim maktablari, dars va darsdan tashqari faoliyat, pedagogik talab va mezon.

Musiqi san'atiga oid tarixiy, ilmiy, pedagogik manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida ham qo'shiqchilik san'ati kishilar hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Qo'shiqlar o'z mazmunida xalq hayotining turli ko'rinishlari, siyosiy – ijtimoiy, tarixiy, tarbiyaviy etnografik

xususiyatlari, insonlarning ruhiy kechinmalari, orzu – umidlari, urf-odatlarini ifoda etishi bilan o‘lkan tarbiya vazifasini bajarib kelganligi bilan ahamiyatlidir.

Jahon ilm-fani, kishilik jamiyati rivojiga o‘lkan hissa qo‘shgan buyuk mutafakkir va allomalar o‘zlarining ilmiy va pedagogik qarashlarida shaxs kamolotida barcha aniq fanlar qatori san‘at turlari, ayniqsa, musiqa san‘ati keng imkoniyatlarga ega ekanligini e‘tirof etganlar, o‘zlari bevosita musiqa ilmi va amaliy ijrochiligi bilan shug‘ullanishgan, o‘z kuzatuv va tajribalaridan kelib chiqib musiqa san‘atidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish yuzasidan qimmatli fikr va xulosalarini bildirganlar.

U yoki bu xalq to‘g‘risida muayyan tasavvurga ega bo‘lish uchun uning musiqasi bilan tanishish kifoyadir. Chunki, har bir xalqning musiqa san‘ati, xususan, qo‘shiqlarida umumbashariy, umuminsoniy ma‘naviyatga daxldor g‘oyalar mujassamlashganligi ham ulardan milliy g‘oya va mafkuraviy maqsadlarda foydalanish imkonini beradi. Shuning uchun ham bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy g‘oya, milliy mafkura ruhida tarbiyalashda ularda eng avvalo xalqimizning milliy qadriyatlariga, uning tarkibidagi milliy xalq musiqa merosiga barqaror qiziqishni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Zero, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov haqli ravishda ta‘kidlaganlaridek, “Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san‘ati navquron avlodimizning yuksak ma‘naviyat ruhida kamol topishida boshqa san‘at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta‘sir ko‘rsatmoqda”.

Xalq musiqasini his etmasdan zamonaviy musiqani, shu qatorda qardosh va chet el musiqalarini ham to‘laqonli idrok etish mumkin emas. Shunday ekan, bugungi kunda mamlakatimizdagi ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida musiqa ta‘limi va tarbiyasini milliy asoslarda tashkil etish, o‘sib kelayotgan o‘quvchi yoshlarda xalq musiqa merosiga barqaror qiziqishni shakllantirish orqali ularni g‘oyaviy, badiiy – estetik ruhda tarbiyalashga ustivor ahamiyat berish lozim.

Ma‘lumki, xalq qo‘shiqlari (folklor) negizida xalq og‘zaki ijodi yoki shoirlar she‘rlariga mansub, mumtoz va maqom ashulalarida esa mumtoz adabiyot vakllari sifatida e‘tirof etib kelinayotgan shoirlar ijodiga mansub adabiy matn yotadi.

Bugungi kunda ham xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom ashula va kuylari ta'sirida yaratilayotgan, shuningdek, zamonaviy mavzu va janrlardagi ko'plab asarlarni xalq orasida ommalashib, mumtoz asarlar darajasida xalq ma'naviy mulkiga aylanib boryotganligida bastakor va kompazitorlarning xalq musiqa ijodidan ilhomlanib, uning hayotbaxsh aye'analaridan ta'sirlanib olgan ijodiy ilhomning ahamiyatini yaqqol ko'rish mumkin

Yuksak badiiy ijod namunasi bo'lgan mumtoz va maqom qo'shiqlari, ashulalari matniga mos musiqiy ohanglar uyg'unligi inson hissiyotiga kuchli, betakror va g'oyat jozibaor ta'sir etishi bilan badiiy – estetik tarbiyani qudratli vositasiga aylanadi. Ajib she'riy misralar, usul, sehrli ohang bilan yug'rilgan qo'shiqlar inson qalbida ezgulik va go'zallik tuyg'ularini junbushga keltiradi, oliyjanob hissiyotlar uyg'otadi.

Shu narsani alohida ta'kidlash joizki, xalq qo'shiqlarini, ya'ni og'zaki an'anadagi folklor qo'shiqlar (lapar, yalla, alla, qo'shiq, mehnat va marosim qo'shiqlari) ni musiqiy – badiiy didi, musiqani tinglash, idrok etish, baholay olish (badiiy – estetik didi) ko'nikmasi turli darajada

bo'lgan barcha insonlar tinglashi, ijro etishi, qabul qilishi mumkin. Lekin, mumtoz va maqom asarlarining badiiy qimmatini anglash, to'g'ri baho beraolish, qadriga yetish, qolaversa o'rganish va ijro etish uchun inson ma'lum darajadagi tayyorgarlik bosqichini o'tagan va zarur ko'nikma va malakalarga ega bo'lishligi talab etiladi.

Mumtoz musiqa bu xalq badiiyatining eng yuksak ijod mahsulidir. Ular avlodlar almashinuvi jarayonida sayqallashib, teranlashib, mukammallashib, umrboqiylik kasb etib, o'ziga xos nola, qochirim, avj, keng diapozon, ovozni jilolantirish, tovush hosil qilish kabi uslublar talqini bilan yuksak ijrochilik mahorati va malakalarini talab qiladi.

Mumtoz kuy-qo'shiqlarni yuksak badiiy ijod namunasi ekanligi va folklor asarlaridan farqli jihati ohang-kuy tuzulmasining rivojlanganlik shakl-xususiyatga ega ekanligi, ohangni milliy – an'anaviy uslubga mosligi, yuksak mahorat va iste'dod egasining ijod mahsuli, she'riy matnining ham shunday e'tirofqa molik

ijod mahsuli ekanligi, qolaversa, matn bilan kuy-ohangning bir-biriga mutanosibligi va nihoyat asarni yuqori malaka, tajriba va mahoratga ega san'atkorlar tomonidan ijro etilishida ko'rinadi. Bunday xususiyatlar musiqa ta'limini boshlang'ich bo'g'inlaridan o'quvchi-yoshlarni xalq musiqa ijodi bilan chuqur va har tomonlama puxta tanishtirib borishni taqazo etadi.

Ushbu maqsad va vazifalar mohiyatiga ko'ra umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarini o'tilish holatini o'rganish, pedagogik kuzatuv va tahlillar o'quvchilarni xalq musiqa merosi, uning serqirra janrlari, ijrochilik uslublari shu o'rinda dastur va darsliklarga kiritilgan mumtoz va maqom namunalari bilan tanishtirib borish talab darajasida kechmayotganligini, o'quvchilarning xalq musiqa merosi bo'yicha bilim, tushuncha, tasavvurlari, qolaversa, ularni tinglash, o'rganish, idrok etish, baholay olish, ijro etish ko'nikma va malakalari qoniqarsiz ekanligini ko'rsatdi. Muammoning tub sabablarini tahlil qilish bizni shunday xulosalar chiqarishimizga sabab bo'ldi:

-umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan aksariyat ko'pchilik musiqa o'qituvchilarining xalq musiqa merosi bo'yicha, ya'ni og'zaki an'anadagi folklor hamda og'zaki an'anadagi professional (ustozona) mumtoz va maqom san'ati bo'yicha yetarli darajadagi malakaviy tayyorgarlikka ega emasliklari ya'ni, zarur nazariy va amaliy bilim, ko'nikma, malakalarga ega emasliklari;

- musiqa darslarini davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi talablariga mos, pedagogik, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilmayotganligi, darslik va dasturga kiritilgan mavzular va tavsiya etilgan namunalarda chetlab o'tilayotganligi;

- musiqa darslarida faoliyatlar uzviyligi va uzluksizligiga amal qilinmayotganligi, ya'ni, o'qituvchilar tomonidan darslarni "o'z imkoniyati darajasida" o'tilishi;

- musiqa o'qituvchilarining aksariyat ko'pchiligining musiqa mutaxassisligi nopedagogik xarakterda (san'at kollejlari, san'at institutlarini tor mutaxassisliklari bo'yicha tugallagan) ekanligi va musiqa o'qitish metodikasidan bexabarligi;

- musiqa o'qituvchilarining musiqa san'atining murakkab janrlari hisoblanmish mumtoz va maqom ijrochiligi bilan bir qatorda zamonaviy akademik

ijro yo'nalishidagi vokal ijrochiligi, xor va xorshunoslik asoslari, dirijyorlik, opera va balet, shuningdek simfonik janrlarga oid asarlarni nazariy tahlil qilish, u haqdagi kerakli ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkaza olish, asarlarni ayrim qismlarini ijro etish, o'quvchilar imkoniyatiga mos namunalarni o'rgataolish imkoniyatlarini cheklanganligi;

- umumta'lim maktablarining aksariyat ko'pchiligini musiqa darslarini o'qitilishi uchun zarur cholg'u asboblari, ko'rgazmali va texnik vositalar, eng muhimi musiqiy fonotekalar bilan ta'minlanmaganligi;

- umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari musiqiy faoliyatga, ya'ni, badiiy havaskorlik to'garaklariga, turli ko'rik-tanlovlarga, musiqiy-ommaviy tadbirlarga o'quvchilarni keng jalb qilishga e'tiborni sustligi;

- iqtidorli o'quvchi-yoshlarga e'tibor, ularni musiqa san'atining alohida yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyat va iqtidorlarini sahnada namoyon qilish imkoniyatini beruvchi faoliyatni tizimli yo'lga qo'yilmaganligi;

- umumta'lim maktablari musiqa o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga yo'naltirilgan ta'limning kutilgan darajada sifat va samaradorlikka ega emasligi.

O'ylaymizki, ushbu muammolarni ijobiy yechimi o'sib kelayotgan yosh avlodni, ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lgan umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarda milliy musiqa merosimizga barqaror qiziqishni, uni o'rganish, kelgusida rivojlantirish layoqatiga ega barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. – Toshkent: Fan, 2009.
2. Fayzullayev E. O'zbek mumtoz musiqasi talabalarning badiiy didini shakllantirish omili. – Toshkent: Ta'lim va texnologiyalar markazi nashriyoti, 2010.

3. I.Qudratov, E.Abdukarimova. "Musiqqa ta'limida fanlararo aloqadorlik". Uslubiy qo'llanma. Samarqand, SamDU bosmaxonasi, 2015yil.
4. Umumta'lim maktablarida musiqqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. – Toshkent, XTV, 1995 yil.
5. O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, 1-Tom. – T.:Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1955y.567b.
6. Abdukarimova Elnaza Ismatillayevna, Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan vatexnologiyalar jurnali* , 29 (08), 3489-34953495.  
[Http://serisc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://serisc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)dan olingan
7. Khasanova Navbahor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15.  
<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>